O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARAQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD60230600-1.13
2021- yil
“__”_____

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2021- yil “__”_____

NOSHIRLIKNING HUQUQIY ASOSLARI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	230000- Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60230600 – Noshirlik ishi

Fan dasturi “Mumtoz adabiyot tarixi” kafedrasining 2021-yil ___-_____dagi ___-son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: **f.f.d. I. Sulaymonov**

Fan dasturi Filologiya fakulteti kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2021-yil __-_____dagi __-sonli bayonnoma).

Fakultet Ilmiy kengashi raisi **f.f.d. A.Pardayev**

Fakultet uslubiy Kengashi raisi **dots. Sh.Mahmadiyev**

“Kelishildi”

SamDU o‘quv ishlari

bo‘yicha prorektor: **prof. A.Soleyev**

Fan/modul kodi *NHAM-1005*	O'quv yili 2021-2022	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)
	Noshirlikning huquqiy asoslari	60	90	-

2. **I. Fanning mazmuni**

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fanining ta'limiy maqsadi: talabalarga zamonaviy nashriyot ishini yo'lga qo'yish haqida bilim berish, ularda noshirlikning huquqiy asoslari haqida ko'nikmalarini shakllantirish.

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fanining tarbiyaviy maqsadi: talabalarni zamonaviy ilm – fan yangiliklarini tadbiq etish, innovatsion axborot texnalogiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish maqsadi sari tarbiyalash.

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fanining rivojlantiruvchi maqsadi: zamonaviy nashriyot ishini yo'lga qo'yish, nashriyot siyosatining asoslari, zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari, muharrirlik faoliyati, turli ko'rinish va janrdagi matnlarni tahrir qilish texnalogiyasi, qo'lyozma ustida ishlash nashriyot ishida marketing kabi masalalar haqida batafsil ma'lumotlar berishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu:

Kursning maqsad va vazifalari.

Nashriyot ishi haqida umumiy tushuncha

Asosiy qismda (ma`ruza) fanni mavzulari mantiquy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinadi.

Fanning umumiy tasnifi va adabiyotlar tahlili. Noshirlik faoliyati tarixi. Kitob nashr etish dastgohining kashf etilishi – kitobat tarixida yangi davrning boshlanishi. G'arbda noshirlik tarixi: rivojlanish bosqichlari va bugungi ahvoli. Kitob muharriri – noshirlikdagi eng mas`ul shaxs.

2-mavzu:

Turkistonda noshirlik tarixi

O'rta osiyo hududida dastlabki qo'lyozmalar. Hattotlik san'ati. Dastlabki bosma nashrlar. Matbaachilik tarixiga nazar. Turkistonda ilk tipografiyalar. Muharrirlik va noshirlikning o'ziga xosliklari.

3-mavzu:
Noshirlik faoliyatining huquqiy asoslari

Nashr, noshirlik ishi sohasidagi qonunchilik tasnifi. Nashriyot faoliyatiga oid xalqaro va milliy qonunchilik tahlili. OAV sohasidagi qonunlarda nashriyot ishlarini rivojlantirish, noshirlik faoliyatini kuchaytirish masalalarining ifodalanishi. "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'zR Qonunu. "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'zR Qonunu. Huquqiy - me'yoriy asos.

4- mavzu:
Nashriyot ishini tashkil etish

Nashriyotning asosiy bo'limlari. Nashriyotga rahbarlik qilish. Muharrirlik – nashriyot jarayoni. Ishlab chiqarish xizmatlari. Original maketni tayyorlash. Nashrning badiiy bezagi. Xizmat ko'rsatish. Yuridik xizmat. Nashriyot marketing. Maxsulot realizatsiyasi.

5- mavzu:
Kitob noshirligi ijtimoiy qadriyatlar tizimida

Zamonaviy matbaachilik. Kitob noshirligi jamiyatning ma'naviy va moddiy madaniyati tuzilmasida. "Kitob madaniyati", "Kitob noshirchiligi madaniyati" tushunchalarining mohiyati va o'zaro munosabatlari. Zamonaviy kitob noshirligida kitob an'analarining o'zaro aloqalari, o'zaro ta'siri va rivojlanishi. Kitob noshirligi ijtimoiy funksiyalari kengayishi. Matbaa sohasidagi ilmiy izlanishlar.

6- mavzu:
Xorijiy davlatlarda nashr ishlari taraqqiyoti

G'arbda va Rossiyada nashriyot faoliyatining tadrijiy taraqqiyoti, dunyoning eng yirik nashriyotlari faoliyati (Angliya, AQSh, Germaniya, Italiya). Xalqaro noshirlik assosatsiyasi. Poligrafik trendlar. Kitob biznesi. Xorijiy tajriba. Xalqaro miqyosdagi nashr mahsulotlarining tasnifi. Xorijiy davlatlar noshirlik faoliyati rivojlanish tendensiyalari.

7- mavzu:
O'zbekistonda zamonaviy nashriyot tizimini shakllanishining asosiy omillari

Nashriyot va davlat. Nashriyot siyosati. O'zbekistonda nashr ishlarining

dolzarb masalalari. Nashr mahsulotlarining son va sifat ko'rsatkichlari. ISBN, EAN – shtrix – kod va uni rasmiylashtirish.O'zbekistonda davlat va nodavlat nashriyotlar faoliyati.

8 - mavzu:

Bosma va elektron nashrlarni tahrir qilish

Qo'lyozma matn qismlarini ruknlash va tahrir. Gazeta matni tahririning o'ziga xosligi. Matn kompozitsiyasining janriy va uslubiy ko'rinishlari. Korrektura haqida tushuncha. Korrektura belgilari. Ruknlar, sarlavhalar tahriri. Matn turlari va muharrirning ular ustida ishlashi va o'ziga xosligi. Noshirlikda matn hajmi tushunchasi. Matndagi faktlarni tekshirish. Punktuatsiya belgilari tahlili va tahriri. Iqtiboslar bilan ishlash.

9 - mavzu:

Nashriyot faoliyatida zamonaviy axborot tizimlari

Nashriyot ishida axborot – komunikatsiya texnalogiyalari. Anannaviy va zamonaviy batbaachilik. "Buyuk in print", "Britanika", "Kemikl Ebstrakts" electron nashrlardi yangi ko'rinishlari. Elektron nashrlar bozori tahlili. MicrossoftOficePublisher, AdobelnDisignAdobelIlustrator – samarali sahifalash dasturlari. AdobePhotoshop – ilyustratsiya va suratlar bilan ishlash vositasi.

10 - mavzu:

Nashriyot menejmenti va marketingi

Nashriyotda reklama. Reklama ko'rinishlari: tijoriy, iste'molchi,kooperativ, seylz promoushn. Merchendayzing. Pablik rileyshiniz. Drektmarketing. Narx siyosati. Nashr mahsulotlarini bozorda tarqatish tizimi. Chiqim va daromadlarni baholash tizimi. Marketing tizimida muharrirning o'rni.

11- mavzu:

Qo'lyozmani nashrga tayyorlash

Qo'lyozmaning nashriyot nusxasi va original nusxasi bilan ishlash. Chop etishgacha bo'lgan jarayonlar. Tahrir turlari. Muallif roziligi. Tipografiyaga ko'rsatmalar.

12 - mavzu:

Zamonaviy kitob bozorida electron kitoblar hissasi.

Kitob nashrlarining yangi shakllari va ko'rinishlari. Elektron analog. Kitob – kompakr – kasseta, kitob – videofilm, kitob – kompakt – disk. Elektron kitob jihozlari.

13 - mavzu:
Nashr mahsulotlarining adabiy – texnik tahriri

Nashrga badiiy bezak berish – grafik dizaynning turi sifatida. Nashrning tashqi va ichki bezak berish. Kitobning badiiy tuzilishi belgilari. Kitobni sahifalash metodikasi. Nashriyotda adabiy muharrirning o'rni.

14 - mavzu:
Kitob dizayni

Axboriy jamiyatda kitob dizayni va mazmuni masalasi. Globallashuvning kitob shakli va ko'rinishiga ta'siri. Zamonaviy grafik elementlar. Kitob va matbuot matnining qism va fasllarga bo'laklanishi: ruknlash va sarlavhalash. Sarlavhani tanlashdagi asosiy nuqsonlar va ularni tahrir qilish qoidalari.

15 - mavzu:
Poligrafiya – axborot industriyasining tarkibiy qismi sifatida

Poligrafiya va nashriyot hamkorligi. Poligrafik xizmatlar. Zamonaviy grafik dizayn ustida ishlash. Zamonaviy poligrafik bozoridagi jarayonlar.

16 - mavzu:
Nashriyot faoliyatida muharrir pozitsiyasi

Muharrir nashriyotdagi ijodiy jarayonni tashkillashtiruvchi asosiy shaxs sifatida. Asosiy yo'nalishlarni belgilash. Muharrir va muallif. Ijodiy hamkorlik asoslari. Muharrir g'oyalar generatori sifatida. Muharrir – menejer. Tashkiliy va ijodiy jarayonlarni tashkil qilish.

17 - mavzu:
Mualliflar bilan ishlash masalalari

Mualliflar bilan ishlashning turlari, ularni tahririyat bilan hamkorligini tashkil qilishning OAV mazmuniga ko'rsatadigan ta'siri.

18 - mavzu:
Nashr mahsulotlarining internet orqali realizatsiyasi

Nashr mahsulotlarining onlayn va oflayn bozori. Ijtimoiy tarmoqlar nashr mahsulotlarini sotish platformasi sifatida. Messenjerlarda nashr mahsulotlari biznesi.

III. Amaliy (yoki laboratoriya) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Nashriyot ishi haqida umumiy tushuncha.
2. Turkistonda noshirlik tarixi.
3. Noshirlik faoliyatining huquqiy asoslari.
4. Nashriyot ishini tashkil etish.
5. Kitob noshirligi ijtimoiy qadriyatlar tizimida

6. Xorijiy davlatlarda nashr ishlari taraqqiyoti
7. O'zbekistonda zamonaviy nashriyot tizimini shakllanishining asosiy omillari
8. Bosma va elektron nashrlarni tahrir qilish

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Nashriyot faoliyatida zamonaviy axborot tizimlari
2. Nashriyot menejmenti va marketingi
3. Qo'lyozmani nashrga tayyorlash
4. Zamonaviy kitob bozorida elektron kitoblar hissasi
5. Nashr mahsulotlarining adabiy – texnik tahriri
6. Kitob dizayni
7. Poligrafiya – axborot industriyasining tarkibiy qismi sifatida

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Nashriyot ishi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish kerak.
2. Turkistonda noshirlik tarixi haqida ma'lumot to'plablash kerak.
3. Noshirlik faoliyatining huquqiy asoslari haqida tushunchaga ega bo'lish lozim.
4. Nashriyot ishini tashkil etish to'g'risida bir qator qoidalarni o'rganish.
5. Kitob noshirligi ijtimoiy qadriyatlar tizimi haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.
6. Xorijiy davlatlarda nashr ishlari taraqqiyoti haqida ma'lumot yig'ish kerak.
7. O'zbekistonda zamonaviy nashriyot tizimini shakllanishining asosiy omillari haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.
8. Bosma va elektron nashrlarni tahrir qilish
9. Nashriyot faoliyatida zamonaviy axborot tizimlarini o'rganish kerak.
10. Nashriyot menejmenti va marketing haqidagi tushuncha bilan tanishib chiqish kerak.
11. Qo'lyozmani nashrga tayyorlash ishlarini o'rganish kerak.
12. Zamonaviy kitob bozorida elektron kitoblar hissasi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish kerak.
13. Nashr mahsulotlarining adabiy – texnik tahriri haqida tushunchaga ega bo'lish kerak.
14. Kitob dizayni bilan tanishib chiqish lozim.
15. Poligrafiya – axborot industriyasining tarkibiy qismini o'rganish kerak.
16. Nashriyot faoliyatida muharrir pozitsiyasi tushunchasi bilan tanishib chiqish kerak.
17. Mualliflar bilan ishlash masalalarini o'rganish.
18. Nashr mahsulotlarining internet orqali realizatsiyasi kabi ishlarni o'rganish.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - - zamonaviy nashriyot mahsulotlari bozori konyukturasini baholay olish; - O'zbekistonda va jahonda nashriyot ishi, noshirlik faoliyati; - noshirlik faoliyatining qonuniy asoslarini o'rganish; - zamonaviy noshirlik menejmenti va marketing bilan tanishib chiqish; - axborot tarqatishning samarali elektron formatlari bilan tanishish; - turli elektron va bosma materiallarning o'ziga xosligi haqida tasavvurga ega bo'lish; - muayyan mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni, o'quv ko'nikmalarini shakllantirish; - mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalana olish ko'nikmalarini rivojlantirishni bilish va ulardan foydalana olish; - sohaga zamonaviy ilm – fan yangiliklarini tadbiq etish, innovatsion axborot texnalogiyalari imkoniyatlaridan foydalana olish, kerak.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • tarqatma materiallar; • ko'rgazmali qurollar; • Kompyuter; media • Internet yangiliklari; • muammoli ta'lim; • qiyosiy tahlil.
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish
6.	**I. Asosiy adabiyotlar** 1. Комаров Е.И. Эфективное издательство. Менеджмент и маркетинг в издательской деятелности. Учебное пособие. – Москва. 2000. 2. Тоҳиров З.Т. Ижодий лабалаторияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технологиялар маркази. 2013. 66 – бет. 3. Тоҳиров З.Т. Нашр жараёни асосий боскичлари. Дарслик. Т.: Тафаккур - Бўстон. 2015. 272 – бет. 4. Ленский Б.В. Книгоиздательская система современной.

России. – М., 2001.
5. Свешникова И.К. Технология редакционно – издательского дела. Учебное пособие для специальности Издательское дело и редактирование" –М., 1995

II. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон Демократик давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016. 29 - бет.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизнинг мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураимз. Т.: Ўзбекистон, 2017. - 485. 12.
3. "Ноширлик фаолияти тўгрисида"ги Ўзбекистон республикаси Конуни.

Internet va ZiyoNet saytlari

1. http://www.redaktoram.ru/izdat_books.php
2. http://read.virnk.ru/g/GRACHEV/index.htm
3. http//www.krugosvet.ru

7. Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv-uslubiy кengashining 2021 -yil __-_____dagi __-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar**:
Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi dotsenti Musurmonov Erkin Rabbimovich

Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi o'qituvchisi Muminova Dilorom Davronovna

9. **Taqrizchilar:**

Sh.Hasanov.	SamDU, "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi professori, f.f.d.. (ichki)
D.O'rinboeva	Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi dorsenti., f.f.d.. (tashqi)

Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan "**Noshirlikning huquqiy asoslari** " nomli fan dasturiga

TAQRIZ

Respublikamizda matbaa va noshirlik sohasini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, bosma mahsulotlar bozorini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

SHuningdek, matbaa va noshirlik sohasida hozirgi kundagi ishlar ahvoli matbaa va noshirlik tashkilotlari o'rtasida raqobat muhitini kuchaytirishni, mualliflik huquqi buzilishining oldini olish, sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarilishini cheklash, darsliklar va o'quv-metodik majmualarni chop etish tartibini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu tizimni yanada takomillashtirish va tartibga solish nuqtai nazaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020 yil 16 mart kuni PQ-4640-sonli "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorini e'lon qildi.

Bunga hamohang ravishda universitetlarda "Noshirlikning huquqiy asoslari" fani o'qitilishi yo'lga qo'yilganligi ayni muddao bo'ldi.

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fani doirasiga fanning mazmuni, predmeti va vazifalari, zamonaviy nashriyot ishi, muharrirlik faoliyati, mutaxassis uchun tahrir jarayoni, ilmiy uslubning o'ziga xosligi, uslubiy me'yorlarga rioya etish, ilova, va adabiyotlar bilan ishlash, qo'lyozmani nashrga qabul qilish, taqrizlash, tahrir qilish mahorati, nashr grafikasi, nashriyotlarning ixtisoslashuvi, jumladan, elektron nashriyotlar faoliyatini tashkil qilish, yashriyot ishida zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnalogiyalari kabi masalalar qamrab olinadi.

Mumtoz adabiyoti tarixi kafedrasi o'qituvchilari tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulot va seminar nazoratlarini o'tkazish uchun savollar hamda foydalanishga mo'ljallangan adabiyotlari talablarga to'liq javob beradi. Mazkur dasturni bemalol o'quv jarayoniga tadbiq qilish mumkin.

SH.Hasanov. SamDU, "Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi" kafedrasi professori, f.f.d.

Samarqand davlat universiteti mumtoz adabiyot tarixi kafedrasining bakalavr (kunduzgi) talabalari uchun mo'ljallangan " **Noshirlikning huquqiy asoslari** " nomli fan dasturiga

TAQRIZ

Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 16 mart kuni PQ-4640-sonli "Noshirlik va matbaa sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori noshirlik sohasi rivoji va uning o'qitilishining yo'lga qo'yilishida muhim dasturilamal bo'ldi.

Kitob bozorlarini sifatli mahsulot bilan to'ldirish, aholining turli adabiyotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda nashriyotlarning hissasi katta. Sohaning texnik bazasi mustahkamlanib, modernizatsiya ishlari amalga oshirilishi va nashrlarning huquqiy asoslari himoyalargani holda xalqaro standartlar darajasida chop etilishiga xizmat qilayotir. Bu jarayonga muvofiq mazkur o'quv yilidan boshlab yurtimiz oliygohlarida Noshirlikning huquqiy asoslari" fani o'tila boshlanadi. SamDU mumtoz adabiyoti kafedrasi o'qituvchilari ushbu fandan mazkur dasturni tuzib, o'quv jarayoniga tadbiq qilishmoqchi.

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fanini o'qitishdan ko'zlangan maqsad – talabalarga zamonaviy nashriyot ishini yo'lga qo'yish, nashriyot siyosatining asoslari, zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish imkoniyatlari, muharrirlik faoliyati, turli ko'rinish va janrdagi matnlarni tahrir qilish texnalogiyasi, qo'lyozma ustida ishlash nashriyot ishida marketing, ushbu jarayonlarning huquqiy asoslari kabi masalalar haqida batafsil ma'lumotlar berish hamda mazkur fanning mazmun va mohiyatini anglatishdan iborat.

"Noshirlikning huquqiy asoslari" fanini chuqur o'rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Fanning ma'ruza, seminar va mustaqil mashg'ulotlari mamlakatimiz hamda rivojlangan demokratik davlatlar ommaviy kommunikatsiyalari tizimi, ular bilan bog'liq nazariy va amaliy tajribalarga tayanib tuzilgan.

Mumtoz adabiyoti tarixi kafedrasi o'qituvchilari tomonidan tuzilgan "Noshirlikning huquqiy asoslari" fani dasturi talablarga to'liq javob beradi. Undan o'quv jarayonida foydalanish maqsadga muvofiq.

D. B. O'rinboeva, Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi dotsenti, f.f.d.